

MAKTAB TA'LIMIDA BESH MUHIM TASHABBUSNI ILGARI SURISH SAMARALARI

Abdullayeva Xurshidaxon Hayotillajonovna

*Andijon viloyati Asaka tumani Maktabgacha va maktab ta'limi 10- umumiy orta
ta'lim maktabi direktori*

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, maktablarda besh muhim tashabbusni ilgari surish chora- tadbirlari haqida fikr yuritilgan. Natija va samaralari haqida ayrim mulohazalar bildirilgan. Ba'zi taklif va qarashlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Maktab, ta'lim islohoti, besh muhim tashabbus, yondashuv, metodika, tizimlilik, pedagog mahorati, muloqot.

Xalq ta'limi O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Aynan maktab ta'limining sifati va qulayligi davlatning rivojlanish istiqbollarini aks ettirib, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun zamin yaratadi. Ta'lim uchun mablag'larni tejash mumkin emas, degan fikrga qo'shilmasdan boshqa ilojimiz yo'q. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida maktab ishlari davlat nazoratida ekanligi bejizga ta'kidlangan emas. Abdulla Avloniy aytganidek «*Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir*».

Bugungi globallashgan kunda ta'lim va tarbiya masalasi insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Yurtimizda yoshlar ma'naviyatini o'stirish, ong-u shuuriga Ona vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish borasida sezilarli ishlar mamlakatimiz mustaqillikka erishganimizning ilk kunidayoq boshlangan edi.

Ta'limning mazmun va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida Ta'limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o'zgarib borgan.

Ta'lim mohiyat-e'tibori bilan dars berish jarayonini, ya'ni pedagog (o'qituvchi) faoliyatini, umuman o'quvchining bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda o'qish jarayonini, ya'ni o'quvchi faoliyatini bildiradi. Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi – o'qituvchi va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o'sadi. Ta'lim avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislikni ta'minlaydi: kishilarning ijtimoiy-tarixiy tajribalari yosh avlodga ta'lim orqali o'tadi.

Bugungi maktab ta'lim tizimida besh muhim tashabbusni ilgari surish ta'limni rivojlantirishning hamda samaraga erishishning eng qulay usullaridan biri hisoblanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, axborot



texnologiyalarini ommalashtirish, sportga qiziqishni kuchaytirish va san'atga qiziquvchanlikni tarbiyalash borasidagi "Besh muhim tashabbusi" yoshlar orasida ijtimoiy faollikni oshirishni maqsad qilgan. Ushbu tashabbuslar quyidagilardan iborat:

1. Kitobxonlik madaniyati va ma'naviy-m'rifiy ishlar: Maktablar, kollejlar va universitetlarda yangi kutubxonalar tashkil etish, mavjud kutubxonalar fondlarini yangi adabiyotlar bilan boyitish, yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish va kitob o'qishni ommalashtirish.

2. Madaniyat va san'atni rivojlantirish: Yoshlarga san'at va madaniyat sohalarida bilim va ko'nikmalarni egallash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, musiqa va san'at maktablari tashkil etish, turli tanlov va festivallarda ishtirok etishlarini rag'batlantirish.

3. Axborot texnologiyalarini ommalashtirish: Maktablar, oliy ta'lim muassasalari va yoshlar markazlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, yoshlarni kompyuter savodxonligi va dasturlash asoslarini o'rganishga jalb qilish.

4. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish: Maktab va oliy ta'lim muassasalari bazasida sport seklomlari tashkil etish, sportni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish.

5. Ijtimoiy faollikni oshirish: Yoshlarning jamoat ishlarida ishtirokini rag'batlantirish, ularni ijtimoiy faollikka undovchi tadbirlar o'tkazish, ularning sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash.

Ushbu tashabbuslar doirasida yoshlar o'z salohiyatlarini to'liq namoyon etish, jamiyatda o'z o'rinlarini topish va kelajakda mamlakat rivojiga hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'lishlari ta'minlanadi.



Mamlakatimiz prezidenti aytganidek: "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi va tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish. Kamolga yetishga intilishga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir"

Besh tashabbus asosida qilingan ishlar butun O'zbekiston bo'yicha yaxshi ko'rsatkichlarga va yutuqlarga erishdi. Bunga ko'plab jarayonlarni misol qilib keltirish

mumkin. Mazkur 5 tashabbusning 1 yilligi munosabati bilan Xalq ta'limi vazirligi tomonidan har bir yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar xususida to'xtalib o'tamiz.

Bugungi kunda Respublikamizda 9942 ta umumta'lim maktablari faoliyat yuritayotgan bo'lsa, ularda 6 mln dan ortiq o'quvchilar ta'lim olmoqda.

Jumladan, yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga qaratilgan birinchi tashabbus doirasida 779 563 nafar o'quvchilar to'garaklarda ishtirok etishmoqda.

Bundan tashqari, maktablarda 2108 ta havaskor yoshlar teatr studiyalari tashkil etilib, 198 698 nafar o'quvchilar jalb etildi.

Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ikkinchi tashabbus doirasida esa, umumta'lim maktablarining 1,1 milliondan ortiq o'quvchilari sport to'garaklariga qatnashmoqda. Shuningdek, mazkur yo'nalish doirasida tashkil etilgan turli sport musobaqalariga o'quvchilar faol ishtirok etmoqda va barcha ta'lim muassasalari qamrab olindi va bu davom etmoqda.

Bugungi kunda ham mazkur vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib, zarur chora-tadbirlar belgilanib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Olis va chekka qishloqlarda engil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar qurish, tashabbuskor tadbirkorlarga sport inshootlari tashkil etish uchun yer ajratish zarurligi ta'kidlandi. Bunday tadbirkorlarga O'zmilliybank tomonidan "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratildi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, davlat rahbarimiz ilgari surgan 5 muhim tashabbus yoshlarning turli sohalarda o'z iqtidorlarini namoyon etish, salohiyatlarini yuzaga chiqarish uchun muhim vosita bo'ldi. Yoshlar orasida turli kitobxonlik ko'rik-tanlovlarini alohida ta'kidlab o'tishimiz zarur. Ma'naviyatimiz rivojida, ajodlarimiz madaniy va ma'naviy merosini qayta tiklash ularni yosh avlodga yetkazishda bugungi pedagog va kadrlarning xizmati beqiyosdir. Zeroki chuqur bilim, katta ilmiy salohiyatga ega mutaxassislar yoshlarimiz yo'lini yorituvchi chiroqdir.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boltaboeva U., Sh U., Rahmonova N. CREATIVE PERSON-THE ROLE OF LIVE WORD IN EDUCATING AN ACTOR //European Journal of Arts. – 2019. – №. 3.
2. Boltaboyeva U., Rakhmonova N., Usmonov S. Characteristics of speech Art: problems and solutions //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 4. – С. 559-567.
3. Болтабоева У. Нутқ санъатининг ўзига хос хусусиятлари: муаммо ва ечимлар //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2).
4. Boltaboeva U. Using Oral Folk Art Methods in Improving Speech Technology //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
5. Akbarova M., Tursunova G., Abdunazarov Z. Section 3. Theater art //European Journal of Arts. – С. 125.
6. Усмонов Ш. САҲНАДА ТАШҚИ ҚИЁФАГА АКТЁРНИНГ МУНОСАБАТИ //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. II.
7. Усмонов Ш. Илм даргоҳига бир назар //Oriental Art and Culture. – 2019. – №. IV (1).
8. Умарова Ҳ., Усмонов Ш. Санъатга бағишланган умр //Oriental Art and Culture. – 2019. – №. IV (1).
9. Dehqonov R., Tursunova G., Abdunazarov Z. Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the sytem of higher education //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 3. – С. 91-95.
10. Tursunova G., Karimov B. PEARLS OF UZBEK NATIONAL DANCE //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 5. – №. Conference. – С. 4-4